

ANTIBIOTIK REZISTENTLIGI ZAMONAVIY TIBBIYOTNING DOLZARB MUAMMOSI

Ergasheva Ominaxon Qahramon qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Davolash fakulteti 1-bosqich talabasi

Musayeva Sh

Ilmiy rahbar.dots

Annotatsiya: Mazkur maqolada Antibiotik Rezistentligi (AMR) zamonaviy tibbiyotdagi eng global muammolardan biri ekanligi, aslida ushbu antibiotiklarning rezistentligi qanday kelib chiqishi va sabablari, qanday rivojlanishini hamda aholining sog'lig'iga zararlari haqida ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Antibiotiklar, rezistentlik, bakteriyalar, zamonaviy tibbiyot, virulentlik, gigiyena, dorilar, retsept.

KIRISH

Antibiotiklarning kashf qilinishi nafaqat zamonaviy tibbiyotda balki Farmatsiya, Biotexnologiya, hamda Biologiyaning barcha sohalaridagi yutug'i hisoblanadi. Antibiotiklardan inson hayotini saqlab qolish, patogen mikroorganizmlarni yo'qotish maqsadida foydalaniladi va ishonch bilan ishlatilindi.

Ammo antibiotiklarni nomuvofiq, nojoiz, shu bilan birga tibbiy jihatdan ham to'g'ri bo'lmagan hollarda foydalanilganligidan "rezistentlik" ya'ni, bakteriyalarda antibiotiklarga qarshi rezistentlik vujudga keldi. Hozirgi kunda bakteriyalarning antibiotiklarga bo'lgan rezistentligi

Butunjahon sog'liqni saqlash (WHO)ni ham o'ziga jalb etdi hamda zamonaviy tibbiyotdagi asosiy muammolardan biri sanaladi. [3;2] Antibiotiklardan noto'g'ri foydalanish, ular faqatgina aholi orasida emas balki flora hamda faunada ham bevosita xabardor bo'lmasdan qo'llanilishidir. Bilvosita ravishda qo'llanilgan bunday antibiotiklar inson populyatsiyasi, hayvonot va o'simlik dunyolariga beixtiyor xavf solmoqda.

Asosiy qism

Hisob-kitoblarga ko'ra Antibiotik rezistentligi (AMR) 2019-yilda dunyo bo'ylab 1.27 million o'limlarga sabab bo'lgan. Rezistentlik xavfi faqatgina o'limlargagina olib kelmasdan global iqtisodiy tomondan ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. The World Bank tomonidan 2050-yilga qadar AMR ning qo'shimcha sog'liqni saqlash harajatlari US\$ 1 trilliongacha yetib borishini taxmin qilmoqda. [5:2]

Antibiotiklar Rezistentligining kelib chiqish sabablari murakkab va ko'p, shuningdek ularga; shifokor tavsiyasisiz dorilarni qabul qilish, virusli kasalliklarda antibiotik ishlatish,



empirik usulda davolash - ya'ni aniq qo'zg'atuvchi aniqlanmasdan antibiotik berilishi, nosokomial infeksiya - shifoxona sharoitida yuqadigan infeksiya, davolash kursi tugamasidan oldin muolajani to'xtatish, gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik, veterinariya va chorvachilikda antibiotiklardan bilvosita foydalanish, oqova suvlardagi antibiotik qoldiqlari ham patogen organizmlarning virulentlik darajasini oshirishga sabab bo'luvchi omillardan sanaladi. Antibiotiklarning rezistentligi davolashning klinik samaradorligini kamaytiribgina qolmay, jarroxlik amaliyotlarini o'tashda, onkologik kimyoterapiya hamda kesarcha kesish amaliyotida ham ona va bolani katta xavfga solmoqda.

AMR ning jadal rivojlanish jarayonida bakteriya tarkibida ko'plab o'zgarishlar amalga oshadi. Antibiotikga chidamli shtammlar paydo bo'lganidan so'ng uning tarkibiy qismlari shu bilan birga DNK si ham mutatsiyaga uchrab o'zgaradi. Hamda bu oqsil sintezi, DNK replikatsiyasi jarayonlarini butunlay o'zgartirishga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida bakteriyalarda;

- dorini hujayraga kirishini cheklash
- dorini hujayradan chiqib yuborish (Efflux pompasi)
- dorining maqsadini o'zgartirish
- biofilm orqali himoyalani
- gorizontal uzatish yordamida yangi bakteriyalarni ham rezistentligini ta'minlash xususiyatlariga ega bo'lib bormoqda.

Antibiotik rezistentligini oldini olishda avvalo birinchi o'rinda inson o'z shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilib yurishi, kasalxona hamda jarroxlik amaliyotlari kechadigan xonalarni qat'iy nazoratga olib dezinfeksiya va sterilizatsiya ishlarini olib borish talab etiladi.

Ushbu muammoni hal qilishda bir dona yechimga tayanib qolmasdan qo'shimcha bir nechta integratsiyalashgan yondashuvlarni ham izlash zarur. Hamda ushbu yondashuvlarga;

1. Nazoratlangan antibiotik terapiyasi – Antibiotiklarni faqat shifokor tavsiyasi bilangina qabul qilinishi, ratsional dorilarni qo'llashni ta'minlash uchun antibiotiklar retsept tizmini kuchaytirish.

2. Yangi dori vositalarini ishlab chiqish – bakteriyalarni yangi mexanizmlarini nishonga oluvchi dorilar, keng ta'sirli dorilar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, dorilarning konsentratsiyasini organizmda me'yorda saqlash, toksiklikni kamaytirish.

3. Rezistentliki oldini olish uchun zamonaviy usullarni ishlab chiqish – Fag terapiya, Immunoterapiya, Probiotik va mikrobiota terapiyalari kabi.

4. Doimiy monitoring va nazorat – rezistentlik darajasini doimiy kuzatish, va nazorat strategiyalari antibiotik rezistentligini tarqalishini oldini olish hamda davolash samaradorligini oshirish yo'lida muhim o'rin egallaydi.



Xulosa

Tadqiqotdan kelib chiqqan holda Antibiotik rezistentligi jiddiy yondashuv talab qiladigan muammoligini isbotladi. Ushbu muammo kelib chiqishidan boshlab uning sabababini topish, aniq muammoni yuzaga chiqarish, hamda to'liq davolash jarayonlarigacha bee'tibor bo'lmasdan ma'suliyatli yondashuvni talab qiladi. AMR bilan kurash integratsiyalashgan va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi, bu esa inson populyatsiyasini himoya qilish va infeksiyon kasalliklarni oldini olishda ijobiy xizmat ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.B. Burxonjonova, O.I. Ergashev “ Antibiotiklar rezistentligining shakllanish mexanizmlari, uning global sog'liqni saqlash tizimidagi ta'siri va yangi antibakterial terapiya yo'nalishlarni ishlab chiqish zarurati” // Modern Science and Research 4-jild, 9-son -2025, 362-264 bet
2. M.U. Ma'murova “ Antibiotiklar rezistentligi, sabalari va oldini olish strategiyalari “ // Ta'lim innovatsiya va integratsiya jurnali 1-to'plam -2025, 126-128 bet
3. Aljeldah M.M. “Antimicrobial Resistance and Its Spread Is a Global Threat // Antibiotics – 2022, 1-6 p.
4. Dadgoster P. “Antimicrobial resistance; Implications and costs. //Infection and Drug Resistance – 2019, 1-3 p.
5. World Health Organization “Antimicrobial resistance”// World Health Organization – 2023.

